

YANGI O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA MEDIA MAKON TRANSFORMATSIYASI

Yoqubjonov Sherzod G‘olibjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti doktoranti

sherzodyoqubjonov@gmail.ru

Tel: 94 1568944

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21044933>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarining rivojlanish tendensiyalari, media makonning transformatsiyalashuvi hamda 2016-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan islohotlarning natijalari tahlil qilingan. OAV sonining ortishi, internet nashrlari va blogosferaning rivojlanishi, axborot ochiqligi hamda so‘z erkinligini ta‘minlash borasidagi o‘zgarishlar yoritilgan. Shuningdek, media sohasida malakali kadrlar tayyorlash, jurnalistlarning kasbiy va huquqiy savodxonligini oshirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida O‘zbekiston media makonining rivojlanish istiqbollari va mavjud muammolari yuzasidan*

Kalit so‘zlar: *ommaviy axborot vositalari, media makon, Yangi O‘zbekiston, so‘z erkinligi, internet nashrlari, bloggerlar, axborot ochiqligi, jurnalistika, media islohotlari, media transformatsiyasi, ilmiy xulosalar hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

DEVELOPMENT TRENDS OF MASS MEDIA AND MEDIA LANDSCAPE TRANSFORMATION IN NEW UZBEKISTAN

Yoqubjonov Sherzod G‘olibjon o‘g‘li

PhD researcher at Namangan State University

sherzodyoqubjonov@gmail.ru

Tel: 94 1568944

Abstract: *This article analyzes the development trends of mass media and the transformation of the media landscape in New Uzbekistan. The study examines the results of reforms implemented since 2016, including the growth of media outlets, the expansion of online publications and blogging activities, and improvements in freedom of speech and information openness. Particular attention is paid to the training of qualified media professionals and the enhancement of journalists’ professional and legal competencies. Based on the findings, the paper identifies current challenges and prospects for the further development of Uzbekistan’s media sector and offers relevant recommendations.*

Keywords: *mass media, media landscape, New Uzbekistan, freedom of speech, online media, bloggers, information openness, journalism, media reforms, media transformation.*

Kirish. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari kundalik hayotimizning ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan. Mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Demokratik huquqiy davlat barpo etishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, avvalo inson haq-huquqlari oliy qadriyat sifatida ta‘minlanishiga erishmog‘imiz darkor. Bu borada bizga OAV ko‘makchi va xolis ko‘prik vazifasini amalga oshirishda yordam beradi. Shu sababli, to‘g‘ri va adolatli axborotlar bilan ta‘minlovchi mustaqil OAVlarni ko‘paytirishga ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

“Bugungi kunda respublikamiz ommaviy axborot vositalarining soni 2016-yilga nisbatan 30 foizga oshib, 1962 ta ommaviy axborot vositasi”[1] faoliyat ko‘rsatayotgani mazkur sohada o‘shishning kuzatilayotganligi, islohotlarning izchil davom etayotganligidan dalolat beradi. Misol uchun, mustaqillikka erishishdan oldin O‘zbekistondagi telekanallarning bir kunlik efir davomiyligi barchamizga ma‘lum bo‘lganidek, 48 soatga teng edi. Ammo, bugungi kunda ushbu raqam 616 soatni tashkil etib, telekanallar soni va efirdagi kontent turlari orqali ommaviy

axborot vositalarining o‘rishini ko‘rsatmoqda.

Asosiy qism. O‘zbekiston medialandshaftiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “2016-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan davrda OAVlar soni 41 foizga oshganini ko‘rish mumkin. Agar 2016-yilda 1514 ta OAV ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 2140 taga yetdi. Xususan, ro‘yxatdan o‘tgan jurnallar soni 2 baravarga ko‘paygan (2016-yilda – 309 ta, 2023-yilda – 623 ta), internet nashrlar soni esa 88 foizga oshgan (2016-yilda – 395 ta, 2023 yilda – 745 ta). Ro‘yxatdan o‘tgan telekanallar soni 65 tadan 84 ta (29 foiz)ga, internet nashrlar 395 tadan 745 ta (88 foiz)ga yetgan. Shu davrda gazetalar soni 691 tadan 631 ta (9 foiz)ga kamaygan. 2016-yilda faol blogerlar 50 dan ortiq bo‘lgan bo‘lsa, hozirga kelib ularning soni 1200 dan oshadi”[2] (Ilova № 2.2).

Ushbu raqamlar, o‘z navbatida, O‘zbekistondagi ijtimoiy va siyosiy islohotlar, inson huquqlari va umumiy manfaatlarining targ‘ib qilinishida ommaviy axborot vositalari, jurnalist va blogerlar faoliyatining aniq natijasi sifatida ko‘rinish beradi. Ular fuqarolarni haqiqiy va xolis ma’lumotlar bilan ta’minlash, faol fuqarolik pozitsiyasini bildirish va jamiyatdagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida yoritishga ko‘maklashish orqali ahamiyatli rol o‘ynamoqda. Bugun davlat organlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini, qonunchilik hamda muhim dasturiy hujjatlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlashda OAV vakillari asosiy rol o‘ynaydi.

Ahamiyatli jihati shundaki, ommaviy axborot vositalarining nafaqat son jihatdan, balki uning tarkibi ham butunlay o‘zgarmoqda. 2017-yilda telekanallarning 53 foizi, radiokanallarning 85 foizini nodavlat mustaqil ommaviy axborot vositalari tashkil etgan bo‘lsa, “2020-yilga kelib birgina internet nashrlarining o‘zi 290 ta katta auditoriyaga ega bo‘lgan xususiy va idoraviy nashrlar”[3] tashkil etilganida ko‘rish mumkin.

Mamlakat aholisining sotsiallasuv jarayoni oshib borgani sari ommaviy axborot vositalariga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Natijada yangi liberallasuv

onlayn ommaviy axborot vositalarining avj olishiga sabab bo‘ldi. Bundan yigirma yil oldin dunyo aholisining atigi 4,1 foizigina internet xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega edi, xolos. 2020-yilga kelib ushbu tarmoqdan foydalanuvchilar soni 5 mlrd.ga (bu bashariyatning 60 foizi deganidir) yaqinlashgan bo‘lsa, 2022-yilning oxiriga kelib Global Statshot matbuot xizmati dunyodagi Internet foydalanuvchilari soni 5,3 milliard kishini yoxud dunyo aholisining 2/3 qismini tashkil qilganligini ta’kidladi. Aytish mumkinki, bugungi kunda Internet auditoriyasi butun dunyo aholisining 63 foizini tashkil qilmoqda.

1996-yilga kelib O‘zbekistonga jahon internet tarmog‘i kirib kelgan bo‘lsa-da, uning rivoji asosan 2000 yildan so‘ng kuzatildi. 2016-yilga kelib internetdan foydalanuvchilar 7,5 mingdan 12,7 millionga, 2017-yilda 14,7 million nafarga yetgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib 31 million nafardan ziyodni tashkil etmoqda.

Natijada aholi internetga an’anaviy ommaviy axborot vositalarida taqiqlangan fikrlarni ifoda etish uchun eng yaxshi vosita sifatida qarashdi. Aholining internet xizmatidan foydalanuvchilar soni ham oshib bormoqda. Jumladan, “2020-yil dekabr oyi holatiga ko‘ra, aholining 22.1 mln. kishisi yoki 65 foizi internet xizmatlaridan foydalanmoqda. Chunki, aholi yashash hududlarini mobil aloqa tarmog‘i bilan qamrov darajasi 2017-yilda 30 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2022-yil 98 foizga yetkazildi”[4]. Shundan 19 millioni mobil internet foydalanuvchilaridir. Umumiy foydalanuvchilar soniga ko‘ra O‘zbekiston Markaziy Osiyoda Qozog‘istondan so‘ng ikkinchi o‘rinni egallab turibdi. “2022-yilga kelib milliy axborot makonimizda internet nashrlarining soni so‘nggi 6 yilda salkam ikki barobar ko‘payib, 677 taga yetdi”[5].

2016-yildan 2019-yilgacha Internet munozaralar va tanqidiy nashrlarning asosiy platformasi bo‘ldi. Ko‘plab yangi ommaviy axborot vositalari paydo bo‘lib va ular o‘rtasida raqobat yanada kuchaydi. Jumladan, Daryo.uz va Kun.uz o‘zbek tilidagi asosiy raqobatchilarga aylanishdi, Gazeta.uz rus tilida, ayniqsa, liberal yo‘naltirilgan jamiyat o‘rtasida yetakchilik qilmoqda.

Zamonaviy elektron ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy hayotimizga kirib kelishi ishbilarmonlik va boshqaruv doirasidagi media muhit imkoniyatlarini kengaytirib yubordi. Bu bir tomondan boshqaruv kadrlarini zaruriy ma’lumotlar bilan ta’minlashda qo‘l kelayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bir qator salbiy ta’sirlari bilan boshqaruvchi kadrlarda voqea va hodisalarga salbiy qarashlarning xam shakllanishiga sabab bo‘lib qolmoqda. Buning eng asosiy sababi global media muhitda ommalashtirilayotgan media materiallar nafaqat professional bilimga ega jurnalistlar, balki bu sohaga aloqasi xam, bu sohada bilim, malaka va ko‘nikmalarga xam ega bo‘lmagan subyektlar orqali tarqatish imkoniyati chegaralari yo‘qolib bormoqda.

Umuman olganda, onlayn ommaviy axborot vositalarining shiddati malakali mutaxassislarning yetishmasligini ko‘rsatdi. Ayrim jurnalist va bloggerlarimizda bilim va professional malaka, bahs madaniyati yetishmasligi jamoatchilikni tashvishlantirmoqda. Bugungi kunda onlayn OAV munosib maosh taklif qilsa-da, ammo halol va professional kontent yaratadigan sanoqligina mutaxassislar mavjud xolos. Ushbu kadrlar yetishmasligi ommaviy axborot vositalariga keskin ta’sir etib, bozorning kengayishiga yo‘l qo‘ymayapti. Ommaviy axborot vositalari sohasi uchun yetuk kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirib borish tizimini takomillashtirish maqsadida 2018-yilda O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini tashkil etilganligi ham bejiz emas. “2019-2020 o‘quv yilidan boshlab, oliy ta’lim muassasalarida Axborot xizmatlari mutaxassisligi bo‘yicha abituriyentlarning qabul qilina boshlangani”[6] va shu bilan birga, bu sohada sifatli kadrlar tayyorlashga ixtisoslashtirilgan fakultetlar tashkil etilayotgani mamlakatimizda axborot xizmatlari sohasini rivojlantirishga bo‘lgan katta e’tiborning belgisi hisoblanadi. Bu qadam axborot sohasidagi mutaxassislarning mukammal bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta’minlash, shundan kelib chiqib, davlat va xususiy sektorlarda axborot xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi farmoni”[7] bilan “Adliya vazirligi va boshqa davlat organlari va tashkilotlar zimmasiga jurnalistlarning huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan bepul o‘quv kurslari, seminarlar, matbuot anjumanlari, brifinglar va mediaturlar tashkil etish kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu qadam ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning huquqiy bilimlarini mukammallashtirishga, ularning ish faoliyatida qonunchilikni tushunish va amalga oshirishga yordam beradi, shu bilan birga, axborot tarqatishdagi xavfsizlik va professional ishonchni mustahkamlaydi”[8].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqoridagi fikrlarni yakunlagan holda quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

Bizningcha, mazkur masalada dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi ilg‘or media sohasidagi kompaniyalarning kadrlar bilan ishlash bo‘yicha tajribasini o‘rganishimiz, ular bilan tajribalar almashishimiz, o‘zaro hamkorlikni yanada kuchaytirishimiz darkor.

Prezident Sh.Mirziyoyev bundan buyog‘iga davlat siyosatida so‘z erkinligini yanada rivojlantirish borasidagi islohotlarni davom etishini bildirib, ommaviy axborot vositalarini tanqid yo‘qligi uchun aybladi: “Afsuski, bizning ommaviy axborot vositalarimiz hayotimizdagi barcha muammolarni aks ettirmaydi, hali biz jamiyatimizda tanqid va o‘z-o‘zini tanqid qilish ruhini kuchaytirishimiz kerak”[9].

Илова № 2.2

Ўзбекистонда рўйхатдан ўтган ОАВларининг сони



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига сўзлаган нуткидан. 2022 йил 27 июнь. // <https://xs.uz/uzkr/post/matbuot-va-ommavij-akhborot-vositalari-khodimlariga-2>
2. Ўзбекистон Республикаси Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги маълумоти, 2023 йил июнь ҳолатига.
3. Шавкат Мирзиёевнинг матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига “Холислик ва ҳаққонийлик амал қилиши зарур” номли йўллаган табригидан. 2020 йил 26 июнь. // yuz.uz/news/matbuot-va-ommaviy-axborot-

vositalari-xodimlariga?view=serdaromad-va-ijtimoiy-ahamiyatli-tarmoq-
istiqbollari-belgilandi.

4. Жабборов У. Сўз эркинлиги ва ахборот очиклиги кафолати Янги Ўзбекистоннинг энг катта ютуғидир // Миллий тикланиш газетаси. 2023 йил 1 июнь сони // <https://mt.uz/yangiliklar/1166>

5. Мирзиёев Ш.М. Матбуот ва оммавий ахборот воситалари ходимларига сўзлаган нутқидан. 2022 йил 27 июнь. // <https://xs.uz/uzkr/post/matbuot-va-ommavij-akhborot-vositalari-khodimlariga-2>

6. А.Расулов, Г.Вафоева. Ўзбекистон Республикасида оммавий ахборот воситалари фаолияти, ўзгаришлар ва муаммолар // Academic research in educational sciences. 2021. P. 258.

7. “Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 09.01.2019 йилдаги ПФ-5618-сон // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 30.11.2021 й., 06/21/26/1111-сон.

8. https://uza.uz/uz/posts/axborot-tarqatishda-soz-masuliyatini-unutmaslik-kerak_271412

9. Shavkat Mirziyoyev, Print and media workers, President.uz, June 2017. <http://www.president.uz/ru/lists/view/707>